

UDC: 347.61+440.82(045)(575.1)

OILAVIY HUQUQIY SHARTNOMALAR VA ULARNI TASNIFLASH MASALALARI

Saydivaliyeva Xurshida Xodjiakbarovna,

Oila va xotin-qizlar ilmiy tadqiqot instituti
bo'lim boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)
ORCID: 0000-0002-3892-8555
e-mail: akbarova1982@inbox.ru

Annotatsiya. Mamlakatimizda amalga oshirib kelinayotgan keng qamrovli ijtimoiy islohotlarning mazmun-mohiyatini oila manfaatlarini himoya qilish, uni jamiyatdagi muhim ijtimoiy institut va barkamol avlodni tarbiyalash o'chog'i sifatida mustahkamlash, oilaning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-tarbiyaviy asoslarini qo'llab-quvvatlashga, reproduktiv salomatlikni asrash borasidagi tizimli ishlar tashkil etmoqda. Oila erkak va ayol o'rtasidagi rasmiy nikohga asoslangan, ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlardan tashkil topgan, jamiyatning axloqiy me'yorlari va qoidalari qo'llab-quvvatlanadigan, insoniyat madaniyatini kelajak avlodga yetkazib beradigan hamda uni rivojlantiradigan birlamchi ijtimoiy guruh hisoblanadi. Bugungi kunda oila instituti va gender tengligiga erishish borasida yangi tizim joriy qilinib, oilalar bilan ishlash mexanizmlari takomillashtirib borilmoqda. Shu jumladan, oilaviy munosabatlarni tartibga solishda dispozitiv mexanizmlardan foydalanish va bu boradagi amaliyotni o'rganish ham muhim sanaladi. Xususan, oilaviy-huquqiy shartnoma tushunchasi, mazmuni hamda turlariga oid masalalar nazariya va amaliyotda o'z yechimini kutib turgan muammolardan hisoblanadi. Oilaviy-huquqiy shartnoma bilan bog'liq ilmiy adabiyotlarda nikoh shartnomasi va alimentlar to'g'risidagi kelishuvga ko'proq urg'u berilganligi, fuqarolik huquqiy shartnoma yoki mustaqil shartnoma turi ekanligi borasidagi bahslar, uning yuridik tabiati, turlari, tasnifiga oid o'rganishlar kamligi kuzatiladi. Maqolada oilaviy-huquqiy shartnoma tushunchasi, "shartnoma" va "kelishuv" tushunchalarining tahlili, oilaviy-huquqiy shartnoma turlari hamda ularni tasniflash bilan bog'liq yondashuvlar bayon qilinadi. Muallif tomonidan oilaviy huquqiy shartnomalarning o'ziga xos jihatlari keltirilib, shartnomaning fuqarolik huquqiy shartnomadan farqi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: oilaviy munosabatlar, huquq, mulkiy munosabatlar, shartnomaviy-huquqiy tartibga solish, shartnoma, tasniflash, qonun, norma, oila a'zolari, er, xotin, oilaviy huquqiy shartnoma, oila huquqi, fuqarolik huquqi.

СЕМЕЙНО-ПРАВОВЫЕ ДОГОВОРА И ВОПРОСЫ ИХ КЛАССИФИКАЦИИ

Сайдивалиева Хуршида Ходжиакбаровна,

доктор философии по юридическим наукам (PhD),
заведующая отделом Научно-исследовательского
института семьи и женщин

Аннотация. Суть проводимых в нашей стране комплексных социальных реформ заключается в организованной системной работе по защите интересов семьи, укреплению ее как важного социального института в обществе и источника воспитания гармоничного поколения, поддержке социально-экономических, культурных и образовательных основ

семьи, сохранению репродуктивного здоровья. Семья считается первичной социальной группой, основанной на официальном браке между мужчиной и женщиной, состоящей из отношений между родителями и детьми, поддерживаемых моральными нормами и правилами общества, передающих человеческую культуру следующему поколению и развивающих ее. На сегодняшний день укрепляется институт семьи и внедряется система достижения гендерного равенства, совершенствуются механизмы работы с семьями. Включение использования диспозитивных механизмов в регулирование семейных отношений и изучение практики в этом отношении также считаются важными. В частности, вопросы, связанные с понятием, содержанием и видами семейно-правового договора, считаются теми, которые ждут своего решения в теории и практике. В научной литературе, связанной с семейно-правовым договором, больше внимания уделяется соглашению о брачном договоре и алиментах, мало изученным остается вопрос, является ли это гражданско-правовым договором или самостоятельным видом договора, отсутствуют исследования по его правовой природе, видам, классификации. В статье анализируется понятие семейно-правового договора, понятия «контракт» и «соглашение», виды семейно-правового договора, а также подходы, связанные с их классификацией. Автором представлена специфика семейно-правовых договоров и изучена разница между контрактом и гражданско-правовым договором.

Ключевые слова: семейные отношения, право, имущественные отношения, договорно-правовое регулирование, договор, классификация, закон, норма, члены семьи, муж, жена, семейно-правовой договор, семейное право, гражданское право.

FAMILY LAW CONTRACTS AND ISSUES OF THEIR CLASSIFICATION

Saydivalieva Khurshida Khodjiakbarovna

Head of the Department of the Scientific Research Institute
of Family and Women, PhD in Law

Abstract. The essence of the comprehensive social reforms carried out in our country is organized by systematic work on protecting the interests of the family, strengthening it as an important social institution in society and a hotbed for the education of the harmonious generation, supporting the socio-economic, cultural and educational foundations of the family, preserving reproductive health. The family is considered a primary social group based on a formal marriage between a man and a woman, consisting of the relationship between parents and children, supported by the moral norms and rules of society, delivering human culture to the next generation and developing it. Today, the institution of the family and the new system for achieving gender equality are being introduced and mechanisms for working with families are being improved. Including the use of dispositive mechanisms in the regulation of family relations and the study of practice in this regard is also considered important. In particular, issues related to the concept, content, and types of family-legal contracts are considered to be those that are waiting for their solution in theory and practice. In the scientific literature related to the family-legal contract, there is more emphasis on the agreement on the marriage contract and alimony, there are few disputes about whether it is a civil legal contract or an independent type of contract, and studies on its legal nature, types, and classification. The article analyzes the concept of family-legal contract, analysis of the concepts of “contract” and “agreement”, types of family-legal contracts, as well as approaches related to their classification. The author presents the specifics of family legal contracts and analyzes the difference between a contract and a civil legal contract.

Keywords: family relations, law, property relations, contractual and legal regulation, contract, classification, law, norm, family members, husband, wife, family contract, family law, civil law.

Kirish

Oilaviy munosabatlarni tartibga solishda oila qonunchiligi oilaviy munosabatlarni tartibga solishning shartnomaviy usulidan foydalanishga imkoniyat yaratadi. Bugungi kunga kelib, *oilaviy-huquqiy shartnoma* oila a'zolarining qonun normasi bilan tartibga solish imkoniyati bo'lmagan jihatlarni, tarmoqlarning o'z huquq va majburiyatlarini belgilab olishlariga imkon yaratadi hamda oilaviy munosabatlarni tartibga solishning o'ziga xos mexanizmi sanaladi. Oila huquqining alohida tarmoq yoki tarmoq emasligi, u bilan tartibga solinadigan munosabatlarning o'ziga xosligi hamda oila a'zolari o'rtasida tuziladigan shartnomalarni fuqarolik huquqiy shartnomalari sifatida qarashlar, bundan tashqari, shartnomani oilaviy huquqiy tartibga solishning fuqarolik huquqiy vositasi sifatidagi fikrlar olimlar orasida hanuz ilmiy bahslar davom etayotganini ko'rsatadi. Shuningdek, bir qator tadqiqotchilar tomonidan oila huquqining mustaqil tarmoq ekanligi va tartibga solish metodologiyasiga egaligi asoslab kelinadi [1]. Nazarimizda, oila huquqi oilaviy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari va ularni tartibga solish metodlari bilan ajralib turadi. Oilaviy-huquqiy munosabatlar o'ziga xos bir necha xususiyatlarga egadir va bu xususiyatlar ularni boshqa huquqiy munosabatlardan ajratib turadi, xususan, ularning davom etuvchi xarakterdaligi, nikoh tuzish va bekor qilish, tug'ilish, farzandlikka olish kabi yuridik faktlar asosida yuzaga kelishi. Oilaviy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatidan yana biri ularning ishonch asosida qurilganidadir. Oilaviy munosabatlarning shaxsiy xarakterdaligi hamda ularning mulkiy munosabatlarga nisbatan ustuvor ekanligi – mulkiy munosabatlar ham shaxsiy xarakter kasb etishi mumkin – vakillikning cheklanishi va huquqiy vorislikka yo'l qo'yilmasligida namoyon bo'ladi. Oilaviy huquqiy munosabatlarni tartibga solishda axloq va huquqning o'zaro bir-biriga yaqinligi barcha oilaviy huquqiy munosabatlar, jumladan, shartnoma

asosida vujudga kelganlari, oilaviy munosabatlarning mazmunini nikoh, oila, homiylik hamda vasiylik borasidagi huquq va majburiyat tashkil qiladi, fuqarolik huquqiy munosabatlarni qonun bilan taqiqlanmagan har qanday huquq va majburiyatlar tashkil etadi. Fuqarolik huquqiy munosabatlar deganda, yuridik jihatdan teng, mulkiy xarakterdagi, tashkiliy jihatdan belgilab qo'yilgan subyektlar o'rtasidagi aloqa tushuniladi.

Oilaviy munosabatlarni tartibga solish xususiy metodining keng qo'llanishiga imkon yaratilgani, dispozitiv qoidalarining [2], shuningdek, oilaviy huquqiy munosabat subyektlarining o'z oilaviy munosabatlarini turli shartnomalar orqali tartibga solish huquqi [3] kengaytirilgani oila qonunchiligining bu borada takomillashib borayotganidan dalolat beradi.

Material va metodlar

Tadqiqotda huquqiy shartnoma alohida mustaqil shartnoma turimi yoki u fuqarolik huquqiy shartnomaning bir turi xolosmi, nima uchun fuqarolik-huquqiy normalar Fuqarolik kodeksining shartnomaga oid normalari bilan tartibga solinadi hamda mustaqil shartnoma sifatida qanday belgilarga ega, degan savollarga javob beriladi hamda takliflar keltiriladi.

Ushbu tadqiqotda ilmiy bilishning tahlil, umumlashtirish, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, statistik o'rganish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari

Ma'lumki, oilaviy huquqiy shartnoma tushunchasi, mazmuni hamda turlariga oid masalalar nazariya va amaliyotda o'z yechimini kutib turgan muammolardan hisoblanaadi. Bundan tashqari, olimlar o'rtasida oilaviy huquqiy shartnomaga oid bahslar ham bu borada tahlil va tadqiqot olib borishga undaydi. Bahslarning yuzaga kelishiga sabablardan biri oilaviy huquqiy shartnoma alohida mustaqil shartnoma turimi yoki u fuqarolik huquqiy shartnomaning bir turi xolosmi, agar mustaqil bo'lsa, u holda nima uchun fuqarolik-huquqiy normalar va shartnomaga oid

Fuqarolik kodeksining normalari qo'llanadi, degan ko'plab mushohada yuritishga chorlovchi savollar yuzaga keladi. Oilaviy huquqiy shartnoma mohiyatini aniqlashning qiyinchilik tug'dirishining asosiy sababi u tartibga soluvchi oilaviy munosabatlarning xilma-xilligi hamda o'zga ijtimoiy munosabatlardan farqli xususiyatga egaligi bilan belgilanadi. Shuningdek, oilaviy huquqiy shartnoma bilan bog'liq huquqiy adabiyot va manbalarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, dasrlik va o'quv qo'llanmalarda nikoh shartnomasi hamda alimentlar to'g'risidagi kelishuvga ko'proq urg'u berilib, sharhlanishi, maqola va tezislarda esa ko'p holatlarda nikoh shartnomasi hamda uning jamiyatda kam tuzilishi, shuningdek, unga oid xorijiy tajriba tahlili ko'proq o'rganiladi. Vaholanki, oilaviy huquqiy shartnoma turlari ancha kengdir. Qolaversa, Oila kodeksining ko'plab moddalarida "agar qonun yoki nikoh shartnomasida boshqacha hol ko'rsatilmagan bo'lsa", agar kelishuv bo'lmasa, "agar aliment to'lash to'g'risidagi kelishuvda indeksatsiya qilish tartibi ko'rsatilmagan bo'lsa" kabi normalar ham kiritilganki, ular oila a'zolariga o'z munosabatlarini tartibga solish imkonini beradi.

Oilaviy huquqiy shartnoma oila a'zolarining qonun normasi bilan tartibga solish imkoniyati bo'lmagan jihatlarni, taraflarning o'z huquq va majburiyatlarini belgilab olishlariga imkon yaratadi hamda oilaviy munosabatlarni tartibga solishning o'ziga xos mexanizmi sanaladi. Oilaviy huquqiy shartnomalar fuqarolik huquqiy shartnomalardan o'zining subyektlar doirasi, shakli, shartnomani tuzish prinsiplari va bajarilishi hamda javobgarligi nuqtayi nazaridan farqlanadi.

Oilaviy huquqiy shartnomalarni faqat oila a'zolarining o'zlarigina tuza oladilar, ya'ni bu borada shartnoma subyektlari soni hamda shartnoma tarafi sifatida o'zga shaxslarni tanlash imkoniyati chegaralanganini aytib o'tish lozim.

Tadqiqot natijalari tahlili

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksida oilaviy munosabatlarni shartnomaviy

huquqiy tartibga solishda oila a'zolari tomonidan tuzilishi mumkin bo'lgan shartnomalar sirasiga quyidagi mazmundagi shartnoma va kelishuvlar kirishini ko'rishimiz mumkin:

- er va xotinning umumiy mol-mulkini bo'lish to'g'risidagi kelishuv (27-modda);
- nikoh shartnomasi (29-modda);
- ota-ona va voyaga yetmagan bolalar umumiy mol-mulkni vujudga keltirishi to'g'risidagi kelishuv (92-modda);
- aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv (100-, 118-moddalar, 17-bob);
- ota-onaning kelishuviga binoan bolaga ism, ota ismi berish (69-, 208-moddalar);
- ota-onaning kelishuviga binoan ota-ona alohida yashaganda bolalarning qayerda yashash joyini belgilash (75-modda);
- ota-ona boladan alohida yashaydigan ota (ona)ning ota-onalik huquqlarini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi kelishuv (76-modda);
- bolalarni oilaga tarbiyaga olish to'g'risidagi kelishuv (195-modda).

Ahamiyat qaratadigan bo'lsak, oilaviy huquqiy shartnomalarning ba'zilar "shartnoma", ayrimlari esa "kelishuv" deb nomlanadi. Nazarimizda, bu borada ham sivilistlarning [4] o'ziga yarasha turli talqinlari uchraydi. Ko'pincha "shartnoma" va "kelishuv" tushunchalarini bir xil deb hisoblash tarqalganini ko'rish mumkin. O'zbek tilining izohli lug'atida [5] ham "kelishuv" so'zi o'zaro maslahatlashib bayon etilgan fikr, xulosa, qaror, bitim, shartnoma deb ta'riflangan, "shartnoma" so'zi tomonlar (ikki yoki bir necha shaxs) o'rtasida tuzilgan, ularning huquq va majburiyatlari qayd etilgan bitim, deb ta'riflangan.

Rim huquqida bitimlarning oddiy (pactum, conventio) va shartnomalarga (contractus) bo'linishi mavjud edi [6]. Shartnomalar faqat qobiliyatli subyektlarning qat'iy huquqiy shaklda tuzilgan har qanday majburiyatlar bo'yicha roziligi sifatida tushunilgan. Faqatgina ushbu shartlarning barchasi bajarilgan taqdirda kelishuv shartnoma deb

tan olingan va natijada da'vo himoyasi bilan ta'minlangan. Oddiy kelishuvlar esa bunday himoya vositasiga ega bo'lmagan. Fanda kelishuv fuqarolik huquqiy munosabatlarning paydo bo'lishi yoki o'zgarishiga qaratilgan kelishuv deb yuritiladi. Shartnoma fuqarolik huquqiy munosabatlar subyektlari mavjud huquqiy munosabatlarni to'ldirishi yoki o'zgartirishi mumkin bo'lgan vositadir.

Yuridik atamalar qomusiy lug'atida [7] berilgan izohga ko'ra, shartnomaga odatdagidek faqat bitimning bir turi sifatida qaramasdan, balki fuqarolar, yuridik shaxslar, davlatlar ishtirokida tuziladigan va ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy munosabatlarni tartibga soladigan yuridik hujjat sifatida qarashni talab qiladi. Shartnoma atamasi shartnoma asosida vujudga kelgan fuqarolik huquqiy munosabatning mavjudligidan va yozma shaklda tuzilgan, shartnomaning mazmunini ifoda etgan hujjat ekanligidan darak beradi. Shartnoma kontrakt ma'nosini beradi. Fikrimizcha, mazkur masalada Oila kodeksi shartnoma hamda kelishuv tushunchalarini sinonim sifatida qo'llaydi.

Oilaviy huquqiy shartnoma fuqarolik huquqiy shartnomadan shartnomaning maqsadi va yo'nalishi, shartnoma subyektlari hamda ularning xohish-irodasi, tuzilish tartibi bilan ajralib turadi. Oilaviy huquqiy shartnoma oila huquqida mustaqil yuridik fakt hisoblanmaydi, u mavjud oilaviy munosabatni o'zgartirishi yoki tugatishi, yoki oila a'zolarining huquq va majburiyatlarini muvofiqlashtirishi mumkin, oila huquqida shartnoma tuzish erkinligi ancha cheklangan bo'lib, erkinlik faqat shartnoma tuzish yoki tuzmaslik, shartnomaviy munosabatga kirishish yoki kirishmaslik kabilarda namoyon bo'ladi. Oilaviy huquqiy shartnoma shartlari oila qonunchiligi bilan belgilab berilgan doiradan chetga chiqmaydi. Oilaviy huquqiy shartnomalarning barchasi ham oilaviy huquqiy majburiyatlarni yuzaga keltirmaydi.

Oilaviy huquqiy shartnomalarni tasniflashning ahamiyati ularni mazmunan tushu-

nish hamda tizimlashtirish, ularning bir-biridan ajralib turuvchi xususiyatlarini namoyon qilish, shuningdek, oilaviy shartnomalar bilan bog'liq mavhumlik, tor darajada qo'llash, oilaviy shartnoma deganda faqatgina nikoh shartnomasini tushunish, uning mustaqil shartnoma sifatidagi rolini aniqlashtirishda deb hisoblaymiz. Shu nuqtayi nazardan, bu borada yanada chuqurroq tahlillarni olib borish dolzarb deb hisoblaymiz. Yuridik adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, oilaviy huquqiy shartnomalarni tasniflash bo'yicha turli asos hamda mezonlar mavjud. Xususan, S.Y. Chashkova [8] tasnifiga ahamiyat qaratadigan bo'lsak, *mulkiy xarakterdagi shartnomalar*: nikoh shartnomasi, er va xotinning umumiy mol-mulkini bo'lish to'g'risida kelishuv, qo'shimcha xarajatlar to'g'risidagi shartnomalar, surrogat onalik shartnomasi, *nomulkiy xarakterdagi shartnomalar*: bolaning yashash joyini belgilash bo'yicha kelishuv, ota-ona boladan alohida yashaydigan ota (ona)ning ota-onalik huquqlarini amalga oshirish tartibi to'g'risida kelishuv; *aralash xarakterga ega bo'lgan shartnomalar* (ham mulkiy, ham nomulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi): bolalarni oilaga tarbiyaga olish to'g'risidagi kelishuv, oila ko'rinishidagi bola uylarini tashkil qilish to'g'risidagi shartnoma kabilarga ajratadi.

M.J. Mukanova [9] esa o'zgacha tarzda tasniflashga uringan. Huquqiy natijaning yo'naltirilganligi bo'yicha: *er-xotinning mol-mulki nuqtayi nazaridan* – nikoh shartnomasi, er va xotinning umumiy mol-mulkini bo'lish to'g'risida kelishuv; *ota-onalik huquqlarini amalga oshirish bilan bog'liq shartnomalar* – bolaning yashash joyini belgilash bo'yicha kelishuv, alohida yashayotgan ota yoki onaning ota-onalik huquqlarini amalga oshirish to'g'risidagi shartnoma; *ta'minot berish berish bo'yicha shartnomalar* – alimentlar to'lash bo'yicha kelishuv, qo'shimcha xarajatlar to'g'risida shartnomalar; *bolalarni tarbiyalashga joylashtirish to'g'risida shartnomalar* – bolani tarbiyalash-

ga oilaga berish to'g'risida shartnoma, oila ko'rinishidagi bola uylarini tashkil qilish to'g'risidagi shartnoma, *Surrogat onalik texnologiyalarini qo'llash bo'yicha shartnomalar* – surrogat onalik shartnomasi; Subyekt tarkibi bo'yicha: *er-xotin o'rtasida tuziladigan shartnomalar* – nikoh shartnomasi, molu mulkni bo'lish to'g'risidagi shartnoma, aliment to'g'risidagi kelishuv; *ota-onalar va farzandlar o'rtasida tuziladigan shartnomalar* – aliment to'g'risidagi kelishuv, qo'shimcha xarajatlar to'g'risidagi shartnomalar; *ota-onalar o'rtasida tuziladigan shartnomalar* – bolaning yashash joyini belgilash bo'yicha kelishuv, alohida yashayotgan ota yoki onaning ota-onalik huquqlarini amalga oshirish to'g'risidagi shartnoma; *boshqa oila a'zolari o'rtasida tuziladigan shartnomalar* – aliment to'lash to'g'risida kelishuv; *oilaga a'zolari va boshqa shaxslar o'rtasida tuziladigan shartnomalar* – bolani tarbiyalashga oilaga berish to'g'risida shartnoma, oila ko'rinishidagi bola uylarini tashkil qilish to'g'risidagi shartnoma, surrogat onalik shartnomasi.

Xulosalar

Birinchidan, oilaviy huquqiy shartnoma mustaqil shartnoma sifatida o'ziga xos belgi va xususiyatlarga ega.

Ikkinchidan, o'ziga xos belgilari bo'yicha xulosa qilinadigan bo'lsa, shartnoma oila huquqida mustaqil yuridik fakt hisoblanmaydi, u mavjud oilaviy munosabatni o'zgartirishi yoki tugatishi, yoki oila a'zolarining

huquq va majburiyatlarini muvofiqlashtirishi mumkin.

Uchinchidan, oila huquqida shartnoma tuzish erkinligi ancha cheklangan bo'lib, erkinlik faqat shartnoma tuzish yoki tuzmaslik shartnomaviy munosabatga kirishish yoki kirishmaslik kabilarda namoyon bo'ladi. Oilaviy huquqiy shartnoma shartlari oila qonunchiligi bilan belgilab berilgan doiradan chetga chiqmaydi. Oilaviy huquqiy shartnomalarning barchasi ham oilaviy huquqiy majburiyatlarni yuzaga keltirmaydi.

To'rtinchidan, oila huquqi metodologiyasida oilaviy huquqiy shartnomalar asosida vujudga keluvchi majburiyatlarni bajarishni ta'minlash va oilaviy shartnomaviy javobgarlikka oid masalalarni ishlab chiqish lozim.

Beshinchidan, oilaviy huquqiy shartnomalarni qo'llash ko'lamini kengaytirish, ayniqsa, shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi shartnomalarni tuzish imkonini kengaytirish zarur.

Oldinchidan, oila a'zolarining o'z munosabatlarini dispozitiv shaklda tartibga solish amaliyotini kengaytirish bu borada shartnomalar ahamiyati haqida targ'ibot ishlarini olib borish.

Yettinchidan, oilaviy huquqiy shartnoma institutini rivojlantirish, ularning yuridik tabiatini chuqurroq tahlil qilish, ularni klassifikatsiyalash va o'rganish, amaliyotda shartnomalarni qo'llash va kelishuv asosida nizolarni hal qilishni kengaytirish dolzarbdir.

REFERENCES

1. Kokova D.A. Soderzhaniye semeynykh pravootnosheniy [The content of family-legal relations]. Moscow, 2017, 173 p.
2. Mukanova M.J. Arutyunyan Ye. Dogovory i soglasheniya v semeynom prave [Contracts and agreements in family law]. *Bulletin of Karaganda University*, 2009. Available at: <https://articlekz.com/article/14322/>.
3. Aleksandrov I.F. Pravovoye regulirovaniye semeynykh otnosheniy: sootnosheniye semeynogo i grazhdanskogo prava [Legal regulation of family relations: the ratio of family and civil law]. Abstract of PhD thesis. Samara, 2004, p. 7.

4. Koreskiy A.D. Teoretiko-pravovyye osnovy ucheniya o dogovore [Theoretical and legal foundations of the doctrine of the contract]. 2001, p. 41.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati [Explanatory Dictionary of the Uzbek language]. P. 347.
6. Chem otlichaetsya dogovor ot soglasheniy [What is the difference between the agreement and the contract?]. Available at: <https://thedb.ru/items/>.
7. Yuridik atamalar qomusiy lug'ati [Encyclopedic Dictionary of legal terms]. Responsible ed. Kh.R. Rakhmonkulov, Literary ed. B.A. Eshpulatov. Tashkent, Sharq Publ., 2003, 370 p.
8. Chashkova S.Yu. Sistema dogovornykh obyazatel'stv v rossiyskom semeynom prave [The system of contractual obligations in Russian family law]. 2004.
9. Mukanova M.J. Dogovor kak sposob regulirovaniya semeynykh otnosheniy [Contract as a way of regulating family relations]. Available at: http://www.rusnauka.com/5_NITSB_2009/Pravo/41395.doc/.
10. Gavrilov A.M. Dogovornoye regulirovaniye semeynykh otnosheniy kak sfera vzaimodeystviya semeynogo prava s inymi pravovymi otraslyami [Contractual regulation of family relations as a sphere of the interaction of family law with other legal branches]. *Actual Problems of Economics and Law*, 2011, no. 2, pp. 168–171.
11. Yeliseeva G.V. Pravovyye osnovy regulirovaniya semeynykh otnosheniy v Rossiyskoy Federatsii [Legal bases of regulation of family relations in the Russian Federation]. *Bulletin of the Siberian Institute of Business and Information Technologies*, 2014, no. 3 (11), p. 42.
12. Kudryavtseva L.V., Mosnaya Ye.I. Problema sootnosheniya grazhdanskogo i semeynogo prava [The problem of the correlation of civil and family law]. *Agrarian and land law*, 2021, no. 3 (195), p. 68.
13. Kravchenko Ye.P. Pravovoye regulirovaniye dogovornykh otnosheniy v semeynom prave [Legal regulation of contractual relations in family law.] Actual problems of jurisprudence in Russia and abroad. Proceedings of the International scientific and practical conference. Novosibirsk, 2015, no. 2. Available at: <https://izron.ru/articles/aktualnye-problemy-yurisprudentsii-v-rossii-i-za-ubezhom-sbornik-nauchnykh-trudov-po-itogam-mezhdun/>.
14. Nekrasova Ye.V. Dogovornoye regulirovaniye semeynykh otnosheniy: problemy sub'ektnogo sostava [Contractual regulation of family relations: problems of the subject composition]. *Bulletin of the Saratov State Law Academy*, 2018, no. 1 (120), p. 157.
15. Nizamiyeva O.N. K voprosu o perspektivakh razvitiya dogovornogo regulirovaniya semeynykh otnosheniy [To the question of the prospects for the development of contractual regulation of family relations]. *Uchenyye zapiski Kazanskogo universiteta – Academic Notes of Kazan University*, 2011, pp. 100–106.
16. Nizamiyeva O.N. Dogovornoye regulirovaniye imushchestvennykh otnosheniy v sem'e [Contractual regulation of property relations in the family]. Kazan, Taglimat Publ. House of the Institute of Economics, Management and Law, 2005, p. 75
17. Lushnikov A.M., Lushnikova M.V., Tarusina N.N. Dogovory v sfere sem'i, truda i sotsial'nogo obespecheniya (tsivilisticheskoye issledovaniye) [Contracts in the sphere of family, labor and social security (civil research)]. Yaroslavl, 2008, pp. 35–40.
18. Otaxojayev F.M. O'zbekiston Respublikasi nikoh to'g'risidagi qonunlarining rivojlanishi va ularni takomillashtirish muammolari [Problems of development and improvement of marriage laws of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, 2000, pp. 136–137.
19. Vikharev A.A. O klassifikatsii dogovorov (soglasheniy) v semeynom prave Rossii [On the classification of contracts (agreements) in the family law of Russia]. *Pravoporyadok: istoriya, teoriya, praktika – Law and Order: History, Theory, Practice*, 2020, no. 2 (25), pp. 113–120.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

6 / 2022

BOSH MUHARRIR:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor,
y. f. d., dotsent

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ikrom Ergashev

Ilmiy boshqarma boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha
falsafa doktori, dotsent

Mas'ul muharrir: D. Xudoynazarov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, Y. Mahmudov,
Y. Yarmolik, F. Muhammadiyeva, Sh. Yusupova

Musahhih: M. Patillayeva

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

veb-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

E-mail: tn.tdyu@mail.ru

Obuna indeksi: 1387.

Jurnal 25.10.2022-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli 20,92 b.t. Adadi: 100.

Buyurtma raqami: 169.

TDYU tipografiyasida chop etildi.